

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 3

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 3

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Otabek Jo'raboyev Navoiy kulliyoti Qo'qon nusxasining talqiniy tavsifi	4
Shermuhammad Amonov Ahmad Tabibiy lirikasi tadqiqida matn tarixining o'rni	17
Zilola Shukurova Qo'qon bayozchilik maktabi va unga xos an'analar	42
Sherzod Qodirov Herman Vamberining "Cagataische sprachstudien" xrestomatiyasidagi Alisher Navoiy g'azallari sharhi	66

ADABIYOTSHUNOSLIK

Nurboy Jabborov "Tarixi anbiyo va hukamo"ning islomiy-irfoniy mohiyati	82
--	----

TILSHUNOSLIK

Dr. Muhterem Saygin Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili için Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Gorge Bay)	100
Altay Noorullah Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	113
Farhad Rahimi Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlısları Üzerine II	130

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Otabek Juraboev**

An Explanatory Description of the Kokand Copy of the Kulliyat of Navo'i 4

Shermuhammad Amonov

The role of Textual History in the Study of Ahmad Tabibi's Lyrics 17

Zilola ShukurovaThe Kokand Tradition of *Bayaz* Manuscript Compilation and its Distinctive Features 42**Sherzod Qodirov**

A Review of Alisher Navai's Ghazals in Herman Vámbéry's "Cagataische Sprachstudien" Chrestomathy 66

LITERATURE**Nurboy Jabborov**

The Islamic and Irfanic Essence of "Tarixi anbiyo and hukamo" 82

LINGUISTICS**Dr. Muhterem Saygin**

An Expression Used for Beloved in the Eastern Field of Classical Turkish Literature: Körke Bay (Körkke Bay, Görgöze Bay) .100

Altay Noorullah

Incorrect use of Punctuation Marks in Navoi's Works 113

Farhad Rahimi

On the Mistakes of Nezirali's Chagatai Turkish Dictionary II 130

Qo‘qon bayozchilik maktabi va unga xos an‘analar

Zilola Shukurova¹

Abstrakt

Arab she‘riyati ta‘sirida o‘zbek mumtoz adabiyotiga kirib kelgan bayozlar adabiy hodisa sifatida keng tarqalib, XIX asrlardan ommalasha boshladi. Mavzu va mazmuniga ko‘ra taraqqiy etishi natijasida har bir xonlik tarkibida bayozchilik maktablari shakllandi. Ushbu maktablarda bayozlarga xos umumiy xususiyatlar saqlangani holda har bir maktabga tegishli xususiylik ham kasb eta boshladiki, bu ularning bir-biridan ajratib turuvchi muhim belgilari sifatida ahamiyatlidir. Ayniqsa, bu holat XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib yaqqol sezila boshladi. Shu davrga qadar uch xonlikda deyarli bir xil tuzilgan bayozlar sekin-asta tuzilishi, badiiy bezaklari, mazmun-mohiyatiga qadar o‘zgarishga yuz tuta boshladi. An‘anaviy bayozlar yaratilgani holda yangi turdagi bayozlar ham tuzildiki, bu tadqiqotchilardan bayozchilik maktablarini jiddiy o‘rganishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: *bayoz, manba, qo‘lyozma, toshbosma, bayozchilik, to‘plam, shoir, adabiy muhit.*

Kirish

O‘zbek adabiyoti tarixi uzoq va boy madaniy merosga ega bo‘lib, ko‘plab mutafakkirlar, allomalarni yetishtirgan. Turonzamin yerlarida ulg‘aygan ajdodlarimiz ilm-ma‘rifat orqali olamshumul yutuqlarga erishishgan. Qadim tarixga ega bu hududlarga islom dini kirib kelgach, aholining dini, madaniyati, turmush tarzi yangi bosqichga ko‘tarilgan. Yangi dinni qabul qilish asnosida arab tili, islom tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishib, ilmiy va badiiy adabiyotda ulkan yutuqlarga erishilgan. Barcha asarlarda Qur‘on hamda Hadisga murojaat qilish an‘anasi qat‘iy qoidaga aylangani holda yangi adabiy janrlar, aruz ilmi, badiiy san‘atlar o‘zlashtirilgan. Ana shunday yangiliklar qatorida bayozlarning kirib kelishi mumtoz adabiyot tarixida alohida hodisa bo‘ldi.

¹ *Zilola Shukurova Yusufovna* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: zilolashukurova@7616gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8766-8833

Iqtibos uchun: Shukurova, Z. Y. 2025. “Qo‘qon bayozchilik maktabi va unga xos an‘analar”. *Oltin bitiglar* 3: 42 – 65.

Bugungi kunda ko'plab qo'lyozma bayozlarning topilishi mumtoz adabiyotimiz namunalarini yanada chuqurroq o'rganishni, xonliklardagi adabiy hayotning ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan o'zaro bog'liqligi masalasini tadqiq qilishni talab qilmoqda. "O'tmish adabiy merosimiz manbalarida saviyasidan qat'i nazar g'oyaviy poydevor bitta – sog'lom e'tiqod targ'ibi. Adabiyotimiz tarixida nomlari ma'lum va noma'lum ijodkorlarning barchasi iqtidoridan qat'i nazar, shu maqsad yo'lida qalam tebratgan va ulardan badiiy yuksak saviyadagi asarlar bilan birga, goh o'rtamiyona, ba'zan undan ham quyi darajadagi adabiy meros qolgan" [Зоҳидов 2018, 165]. Shu jihatdan adabiyot tarixida qalam tebratgan har bir ijodkor, nazm va nasrdagi iqtidoridan qat'i nazar, o'rganilmog'i va kelajak avlodga yetkazilmog'i lozim.

Qo'qon xonligi Buxoro va Xiva xonliklaridan keyinroq tashkil topgan bo'lsa-da, qisqa muddatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda o'z o'rniga ega bo'ldi. "Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo'jand, Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston" [Адилова 2009, 124] hududlarini qamrab olgan mazkur xonlikda vaqti-vaqti bilan yuz berib turgan siyosiy beqarorliklarga qaramay ilm-fan, adabiyot, san'at rivojlandi va o'ziga xos adabiy maktab shakllandi. She'riyatga e'tibor tufayli adabiy muhit, xususan, bayozchilik rivojlandi. A. Qayumovning ta'kidlashicha, "XVII asrning birinchi yarmidayoq Qo'qon adabiy muhiti tashkil topa boshladi... O'sha davrda shoirlar ikki turga bo'lingan. Birinchi turdagilari xon saroyida xizmat qilib, unga maqtov qasida yozganlari, masalan: Mirza Ma'sum Kosoniy kabi, ayrimlari shohlarning zulmiga qarshi she'r bitganlar" [Қаюмов 1969, 39]. Agar Qo'qon xonligining rasman tashkil topishi 1709-yili sodir bo'lgan bo'lsa, adabiy muhit xonlik tashkil topmasidanoq shakllana boshlagan degan xulosani paydo qiladi.

Xonlik tashkil etilgandan keyin ham hukmdorlarning deyarli barchasi shoirlarga o'zgacha lutf ko'rsatganlar. Xususan, "Qo'qonda hukmronlik qilgan Olimxon (1801 – 1811), Umarxon (1811 – 1822), Muhammadalixon (1822 –1842)larning saroyi atrofida ko'pgina shoirlar uyushgan va adabiy harakat ancha rivojlangan. Bu rivojlanish adabiyotdagi ikki qarama-qarshi oqimning ham ancha qat'iy shakllanishiga sabab bo'ldi" [Қаюмов 1961, 342]. Ayniqsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshida hukmronlik qilgan amir Umarxon davrida ilm-fan, adabiyot va san'at yanada rivojlandi. Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, Qo'qon adabiy muhitining "vujudga kelishi, rivojlanishi va yaxlit bir adabiy muhitga aylanishi Qo'qon

xoni Amir Umarxon nomi bilan bog'liq" [Қобилова 2010, 10].

Qo'qon xonligining siyosiy jarayonlari va adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi Fazliyning "Majmuayi shoiron", Qori Rahmatullo Buxoriyning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob", Hakimxon to'raning "Muntahab ut-tavorix", Mirza Olim Ho'qandiy mir Mirzarahim Toshkandiyning "Ansob us-salotin va tavorixi xavoqin", Mushrif Isfarago'yning "Shohnomayi Nusrat payom" asari, Hakimxon to'raning "Muntahab ut-tavorix", Po'latjon Qayyumiyning "Qo'qon tarixi va adabiyoti" kabi bir qancha tazkiralarda Qo'qon xonligidagi siyosiy vaziyat, shoirlar va ularning ijodi va hayot yo'liga oid ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bu muhitda Umarxon, Muhammadali, Ado, Qoriy, Fazliy, Xaziniy, Nodir, Gulxaniy kabi ko'plab ijod ahlari yetishib chiqdi. Bu esa, o'z navbatida, she'riyat, adabiyotning gullab yashnashiga olib keldi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhayyir, Nisbatiy, Usmonxo'ja Zoriy kabi shoirlar ishtirokida adabiy mahfillar tashkil etilib, she'rxonliklar uyush-tirilgan. "Shu davrda yashagan ijodkorlar ijtimoiy hayotda faol qatnashib, lirik hamda ijtimoiy mavzularda asarlar yaratib davr adabiyotiga muhim hissa qo'shdilar. Bu davr adabiy hayotida ijodkorlarning faollashuvi, badiiy tafakkurdagi yangiliklar, ada-biyotda yangi mavzu va g'oyalarning yuzaga kelishi kuzatiladi" [Абдуллаева 2005, 5]. Adabiy jarayondagi faollik faqatgina xonlikdagi shoirlar o'rtasida emas, balki qo'shni xonliklar bilan ham jadal rivojlandi. Bu hamkorlik natijasida shoirlar o'zaro yaqin muloqotda bo'lish bilan birga ulardan ijodiy ilhomlanish, tajriba almashish imkoniyatiga ham ega bo'lgan. Qo'qon xonligida tuzilgan bayozlar janrlar xilma-xilligi, she'rlarining mazmunan boyligi va rang-barangligi bilan boshqa xonliklardan anchagina farqlanadi. Bu yerda rivojlangan adabiy muhit nafaqat shu xonlikda, balki Buxoro va Xiva xonliklarida ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu esa adabiy aloqalarda Qo'qon shoirlari faol bo'lganini ko'rsatadi. Qo'qon xonligi adabiy muhitida tuzilgan bayozlar ko'zdan kechirilganda ularda, asosan, Buxoro va qisman Xiva xonligi shoirlarining ijodi ham kiritilgani ko'rinadi. Xususan, Buxoro adabiy muhitiga mansub Mushfiqiy, Roqim, Shavkat, Hotif, Oxund Buxoriy, Nosir Buxoriy, Yusuf, Majnun kabi buxorolik shoirlarning ishtiroki bayozlarda faol bo'lsa, Xiva xonligi vakillaridan Feruz, Sulton Said, Hisrav, Xayoliy, Саъдий Хоразмий kabi shoirlarning ijodidan namunalar nisbatan kam uchraydi.

Qo'qon xonligi adabiy muhitining Buxoro shoirlari bilan aloqasi g'oyatda mustahkam bo'lib, deyarli barcha bayozlarda

Buxoro adabiy maktabi vakillarining ijodini uchratish mumkin. Ikki xonlik o'rtasida bunday mustahkam adabiy aloqalar uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan o'zaro hamkorlik hosilasi bo'lib, uning sabablarini quyidagilarda ham ko'rish mumkin:

Avvalo, ayrim buxorolik shoirlar o'zlarining favqulodda iste'dodi, hozirjavobligi, she'riyatning nozik qirralarini his qilishi, boshqa shoirlar ilg'ashi qiyin bo'lgan tabiat go'zalliklarini ko'ra olishi va uni misralarda ifodalay olishiga ko'ra ajralib turadi. Tabiiyki, bunday shoirlarning ovozi tezlikda chegara va hududni bilmay atrofga tarqaladi va muxlislarini topib oladi.

Qo'qon bayozlarida tez-tez uchraydigan Shavkat Buxoriy o'zining noyob iste'dodi bilan qo'qonlik muxlislariga tanish bo'lgan. Manbalarda shoirning forsiy tilda go'zal she'rlar yozgani haqida ma'lumotlar berilgan. Ammo uning turkiy tilda ijod qilgani haqida biror so'z aytilmaydi. Shu bois bayozlarda uning faqat forsiy tildagi g'azallarini uchratish mumkin. Shavkat Buxoriy o'z ijodi bilan nafaqat xonliklar orasida, balki Hind va Eron zaminida ham ancha shuhrat topib, xalqlar o'rtasidagi madaniyatlar va adabiy aloqalarni rivojlantirishda ham o'z hissasini qo'shganligini ko'rsatadi. XVII asrning ikkinchi yarmida Shavkat Buxoriy taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Is'hoqbek asli Buxoro xonining o'g'li bo'lib, otasining vafotidan keyin taxt amakivachchalarining qo'lga o'tgach, Buxorodan Eronga bosh olib chiqib ketadi. Go'zal tab'i va she'rning nozik qirralarini yaxshi tushunganligi sababli Isfahon hokimi Muhammad Saiddinxon unga alohida ehtirom ko'rsatadi. U Eronda umrguzaronlik qiladi. Dastlab Marv shahriga boradi, keyin Mashhadga borib Imom Ali bin Muso Rizoning qabrini ziyorat qiladi. Shundan so'ng Isfahonga borib shahar hokimi Muhammad Saiddinxon hurmatiga erishadi. Bir qancha vaqt turib, keyin Hindistonga boradi va u yerda Muhammad Ali Gavharshohning hurmatiga sazovor bo'ladi. Bir necha yil sayohat qilgach, yana Isfahonga qaytadi va 1695-yili o'sha yerda vafot etadi. Shavkatning bu darajada Eron shohlari orasida baland martabaga erishishida uning nasabi va hasabi asosiy sabab emas, balki shoirning aqli, salohiyati va she'rga munosabati ham sabab edi. Uning ijodi forsiyzabon olimlar tomonidan yaxshigina tadqiq qilingan. Tadqiqotchilar uning "sabki hind"da ijod qilganligini e'tirof etib, uning devonini aniqlaganlar. Taxminan Buxoroda XIX asrning oxirida tuzilgan 2809 raqamli qo'lyozma bayozda [Bayoz 2809] Shavkat Buxoriyning she'rini uchratish mumkin. Ushbu bayozda asosan Hofiz va Bedil bilan birga buxorolik shoirlarning ijod namunalari berilgan.

Boshidan oxiriga qadar gulli, yopishtirilgan nakleykalar bilan bezalgan ushbu bayoz qizil, qora, siyoh rang bilan o'ta hafsula bilan tuzilgan. Kitob yaxshi holatda saqlangan. She'rlari deyarli forsiy tilda. Demak, go'zal she'r hudud va vaqt sarhadlaridan o'tib, o'sha yerning adabiyotidan joy olgan.

Ikkinchidan, shoirlarning bir hududdan ikkinchi hududga o'qish, ishlash, sayohat, savdo-sotiq yoki tirikchilik bahonasi bilan borishi natijasida ikki xonlik o'rtasida adabiy aloqalar yanada rivojlangan. Masalan: Xoja Ahror avlodlaridan bo'lgan samarqandlik Sultonxo'ja Ahroriy Ado taxallusi bilan ijod qilib, amir Umarxon saroyida xizmat qilgan va malik ush-shuaro darajasiga ko'tarilgan. Shoir Ado Umarxonga eng yaqin mulozimlardan bo'lib, bayozlarda ko'pincha Amir Umarxon ijodi bilan birga keladi. Bayoz tuzilishidagi bu tartib tasodifiy bo'lmay, kotiblar Amiriyning ijodini berganda undan keyingi shoirlarning xonga qay darajada yaqinligiga ahamiyat qaratganlar. Bayoz tuzilishidagi bu ichki tartib, albatta, hamma bayozga xos bo'lmay, xon va uning yaqin mulozimlari ijodi kiritilgan bayozlarda ko'proq uchraydi. Umarxon vafotidan keyin Ado Buxoroga qaytib, Samarqandga shayx ul-islom etib yuboriladi va o'sha yerda vafot etadi. Ko'rinadiki, Buxoro xonligi vakili hisoblangan Ado xon saroyida Qo'qon xonligi adabiyotini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan. Bu esa, bevosita ikki xonlik o'rtasidagi adabiy aloqalarni ta'minlagan.

Buxoroda tug'ilib, turli sabablar bilan Qo'qon xonligiga borgan va ikki xonlikning adabiyotini rivojlantirishga hissa qo'shgan shoirlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: XIX asrning yarmida Buxoroda tug'ilgan shoir Komil ham shu yerda o'qib, ulg'aygach, qog'oz ishlab chiqarishni o'rganish maqsadida Qo'qonga kelib ishlaydi; Buxoroda tug'ilib shu yerda oqigan, Qur'on ilmini yaxshi bilgan qori hamda mudarris bo'lgan Toliy qandaydir sabablarga ko'ra Marg'ilonga ko'chib, o'sha yerda yashaydi. Demak, Buxoro adabiy muhitini rivojlantirishda hissasini qo'shgan buxorolik shoirlar turli sabablar bilan Qo'qon xonligiga kelgach, mazkur xonlik adabiy muhitining taraqqiy etishi uchun xizmat qilgan va bayozlardan o'rin olgan. Umuman olganda, Buxorodan Qo'qonga kelgan shoirlar anchagina edi. Qo'qon xonligi o'zining boy adabiy merosiga ega bo'lsa-da, xonliklar bilan adabiy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yganligi bois bu yerda adabiy muhit, xususan, bayozchilik rivojlangan. Shuning uchun bu yerda tuzilgan bayozlarda Xiva va Qo'qon xonligi adabiy vakillarini tez-tez uchratish mumkin.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar instituti fondida

Qo'qon adabiy muhitida tuzilgan bayozlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi va bunda professor H. Sulaymonning xizmati katta. Institutda saqlanadigan bayozlarni o'rganish jarayonida Qo'qon xonligining turli hududlarida tuzilgan bayozlarni hududiy jihatdan quyidagicha guruhlab o'rganish mumkinligi ma'lum bo'ldi:

1. Qo'qonda tuzilgan bayozlar.
2. Namanganda tuzilgan bayozlar.
3. Farg'onada tuzilgan bayozlar.
4. Toshkentda tuzilgan bayozlar.
5. O'zgandda tuzilgan bayozlar.

Xonliklarda tuzilgan bayozlarning umumiy jihatlari ko'p bo'lib, XIX – XX asr bayozchiligi xususida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Biroq Qo'qon bayozlarigagina xos bo'lgan ichki tuzilish mazkur hududda shakllangan bayoz tabiati va o'ziga xosligini tushunishga imkon beradi. Bu tahlil, eng avvalo, uning til xususiyatini o'rganishdan boshlanadi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Qo'qon xonligi adabiy muhitida turkiy, forsiy va juda kam miqdorda arab tillari iste'molda bo'lsa-da, bayozlarda forsiy tilining mavqeyi turkiy va arab tiliga nisbatan baland bo'lgan. Buni bayozlarning hamd va na't qismi, lirik she'rlarning yarmidan ko'pi, asosan, shu tilda bitilgani tasdiqlaydi. Shoirlar fors-tojik tilida lirik she'rlar yozish bilan birga ikki tilda ijod qilish imkonini beruvchi "shir-u shakar" uslubida ham she'rlar yozib, ikki tilni bir xil sevganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Qo'qon xonligiga xos bo'lgan kitobatchilik an'analari uning boshqa xonliklardan ajratib turadigan tashqi belgisi hisoblanadi. Kitob muqovasi uchun ishlatiladigan ranglar, ularga bosilgan tamg'alarining shakli, dizayni, joylashuvi – barchasi shu xonlik kitobatchiligiga xos xususiyat hisoblanadi. Rang tanlashda muqovasozlarning, asosan, yashil, ba'zan esa jigarrang va za'faron (gorchishnik) rangdagi qattiq qog'ozlar bilan qoplashi, lola va turunj naqshlar esa, asosan, to'q qizil yoki tilla rangda bo'yalishi bu maktabda kitobatchilik an'alarining o'z yo'nalishi borligini va silsilaviy davom etayotganligini ko'rsatadi. Matn sahifalarida badiiy bezaklardan kam foydalanish bu hududning asosiy xususiyatidir. Ya'ni ushbu hududda tuzilgan bayozlarda hashamat ko'zga tashlanmaydi.

Uchinchidan, musannifning bayozlarda Amir Umarxonni alohida hurmat va ehtirom bilan tilga olishi xonga nisbatan katta ehtirom bilan murojaat qilish an'ana sifatida shakllanganligini ko'rsatadi. Yurt shohiga nisbatan bu darajadagi ehtirom ifodasi

boshqa xonliklarda deyarli kuzatilmaydi. Masalan: yurt podshosi ham ilm-adab ahlining peshvosi bo'lgan amir Umarxon lirik merosi berilganda, ko'pincha uning nomi sharaflari so'zlar bilan tilga olinadi. "Amir", "Amiriy" taxallus bilan ijod qilgan shoh ayrim bayozlarda "Amir Umarxon jannatmakon", "Amirxon amiri Farg'ona jannatmakon" kabi ta'riflar bilan tilga olinadi. Bu esa Qo'qon xonligida xon va amirlarga nisbatan yuksak darajada lutf ko'rsatish odatga aylanganini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, bayozlar shakliga ko'ra yangilana boshladi. Tarkibida nasrning kirib kelishi va ommalashishi bu davr bayozchiligining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu davr xonlik bayoz tuzilishida nasr deyarli ajralmas bir qismga aylandi. Ular turli mavzuda bo'lib, mohiyatiga ko'ra diniy, falsafiy, ishqiy, tarixiy, yumoristik kabi matnlarni tashkil qiladi. Bunday nasriy matnlarning qo'shilishi, asosan, madrasa toliblari uchun tuzilgan bayozlarda ko'p uchrab, fanning turli sohalariga oid matnlarni tashkil qiladi. Shu bilan birga she'r ixlosmandlari uchun tuzilgan bayozlarda ham nasriy matnlarning kiritilishi ko'p uchraydi. Bularga, asosan, diniy, tarixiy xabarlar, rivoyat va hikoyatlar, duolar, latifa, qissa, arznoma, maktublar va shunga o'xshash nasriy matnlar tashkil qiladi.

Beshinchidan, bayozlarning mazmunida ham evrilishlar kuzatiladi. Xususan, xorijiy davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy ta'siri natijasida o'lkada kirib kelgan yangiliklar, islohotlar, siyosiy jarayonlar bayozlarda ham aks eta boshladi. Zavod, fabrikalarning qurilishi, temir yo'lining kirib kelishi, madaniyat, yozuv, tili va hokazolar ta'sirida yozilgan lirik she'rlar bayozlarda aks etadi. Masalan: "shoirlardan Muqimiy, bir tomondan, mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ikkinchi yoqdan, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirdi" [Қосимов, Юсупов, Долимов, Ризаев, Аҳмедов 2004, 18 – 19], – deya asosli aytilgan Muqimiy haqidagi fikrlari o'z davrining boshqa ma'rifatparvar shoirlari uchun ham tegishli xulosadir.

Oltinchidan, xonlikda temuriylar davridan keyin qayta rivojlangan muammo janrida ijod qilish ko'p uchraydi. Shu sababli xonlikda tuzilgan deyarli har bir bayozda muammo san'atiga doir misollar bor.

Yettinchidan, Qo'qon bayozchilik maktabi taraqqiyotida shoiralarning roli oshdi. Bu esa xonlik adabiy muhitida ayollarning ham o'rni bo'lganligini isbotlaydi.

Qo'qon xonligida tuzilgan bayozlar boshqa hududlarga qaraganda son jihatdan ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra Qo'qon xonligida tuzilgan bayozlar maqsadiga ko'ra tasniflab o'rganishni lozim topdik:

1. Yuqori martabali shaxslar uchun tuzilgan bayozlar.
2. Adabiy davralar uchun tuzilgan bayozlar.
3. Adabiyot muxlislari uchun tuzilgan bayozlar.
4. Xonandalar uchun tuzilgan bayozlar.

Yuqori martabali shaxslar uchun tuzilgan bayozlar

Ushbu turdagi bayozlar o'zining tashqi ko'rinishi, bezagi, yozuvi, tuzilishi bilan boshqa turdagi bayozlardan farqlanadi. Misol uchun, 2102 raqamli bayozda [Bayoz 2102] Jomiy, Amir, Xolis, Oshiq, Zavqiy, Furqat, Xastadil, Riyoziy, Miskin, Muqimiy, Xislat kabi shoirlarning g'azal, muvashshah, muxammas, ruboiy, chiston va baytlar bilan birga oshiq nomidan ma'shuqaga qaratilgan nomalar o'rin olgan. Matn maqsadiga ko'ra xonga taqdim qilish uchun tuzilgan bo'lib, 100-sahifada kotib tilidan bayozning Amir Umar-xonga taqdim qilish uchun yozilgani, xattot ishni ko'chirib tayyor bo'lgandan so'ng, uni xonga taqdim qilishini va uni "noma yozdim" deyishini qayd etgan. Shu qaydlar o'zi bayozning xon uchun yozilganini tasdiqlaydi.

Bayozning o'ziga xos xususiyati shundaki, matnning 94-sahifada she'riy misralar bilan birga *Arznoma va Holi insholar* keltirilgan. Ushbu murojaat turining har ikkisi oshiq tomonidan ma'shuqaga qarata yozilgan. Avval Arznoma keladi va u shunday boshlanadi: "*Kaminayi kamtarindur inshoi falondin ba xitob sarband martabalik yorijonimga arzanoma. Olamguliston majlisi oroy....*". Albatta, bu ariza rasmiy bo'lmay, oshiqning ma'shuqa qiynoqlaridan arz qilib yozgan samimiy murojaatidir. Shu sahifaning 95-sahifasida berilgan keyingi arznoma ham shunday mazmunda. Bunda endi oshiq o'zining ma'shuqa ko'yidagi ahvoloti haqida insho qilib bergan. Shunday boshlanadi: "*Ushbu arznomayi rozi hayron muhtaloi baloyi, hijronsiz sho'xi zeboyi gulandom, hurliqo Dilorom, fatila mo'yi anbar bo'yi, hur xo'y bir pariroy jon jahon, shukr zabon, oromi jon, bulbuli davron,*" deb davom etadi. Lutf bilan aytilgan ma'shuqaga murojaat asnosida oshiq tilidan ma'shuqaning ko'nglini olish, matnning ta'sirli chiqishi uchun Vomiq va Uzro, Farhod va Shirin kabi obrazlardan ham foydalangan. Bu kabi yorga murojaat shaklidagi yozishmalar bayozlarda uchrab turadi. Shuningdek, bu bayozda ariza va murojaatlarning boshqa turlari

ham berilgan. Shu jihatdan ushbu bayoz boshqalaridan ajralib turadi.

Adabiy davralar uchun tuzilgan bayozlar

Adabiy davralar uchun tuzilgan bayozlar ancha hafsala va did bilan yozilgani, janriga ko'ra xilma-xil bo'lib, adabiy yozishmalar, tatabbu'lar kiritilgani bilan ajralib turadi. Bunday bayozlardan shoirlarning bir-biri bilan o'zaro shaxsiy munosabatlari, adabiy davralar, aloqalar haqida ma'lumot olish mumkin.

Qo'qon adabiy muhitida mumtoz shoirlarning xonlik adabiy hayotidagi o'zni hamda zamonaviy shoirlarning ularga munosabati masalalari haqida tahliliy ma'lumotlarni taqdim qiluvchi ko'plab bayozlar tuzilgan. Ulardan biri 322 raqamli bayozdir [Bayoz 322]. Unda juda ko'plab zamona shoirlarining mashhur shoirlar ijodiga taqlidan yozgan namunalari uchraydi. Masalan: 505-betda Nolaning "Qoldimu" radifli 8 baytli g'azali beriladi:

دهردین مین چیکماکان عالمده مخنت قالدیمو
باشیم اوزره یاغمغان کردون آفت قالدیمو
کرچی چیکتیم بزم وصلینک ایچره عشرت ساغری
هجریدین مین یوتمغان خوناب حسرت قالدیمو

Ushbu g'azal mazmunan Boburning mashhur "Charxning men chekmagan javr-u jafosi qoldimu" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalidan ilhomlanib yozilgan.

Ba'zan bayozlar orqali ham shoir shaxsiyati va faoliyatiga oid yangi ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Masalan: 802 raqamli qo'lyozma bayoz (Bayoz 802) ana shunday manbalardan. Bayozning 17-sahifasida "Furqat afandim o'z tamlai bilan tahrir qilg'ondir" degan qayd uchraydi. Demak, matn shoir Furqat nazorati ostida tuzilgan. Bayoz shu kunga qadar juda ko'p talofatlar bilan yetib kelgan va uning hozirgi kunda uzilib yotgan 16 varag'igina saqlanib qolgan. She'riyat muxlisi tomonidan bajarilgan bo'lsa kerak, qolgan varaqlari ham yo'qolib ketmasligi uchun bitta papkaga solib yig'ib qo'yilgan. Garchi bayozning juda kam varag'i saqlangan bo'lsa-da, unda Jomiy, Muqimiy, Amiriy, Nisbatiy, Fazliy, Fozil, Imlo, Shamsiddin Tabriziy, Xurramiy, Furqat kabi shoirlarning g'azal, muvashshah, muxammaslaridan tashqari, Muqimiyning bir qator "Dar sifati sandali", "Dar muzammati aroba go'ftash" kabi satirik she'rlari hamda bayozlarda kam uchraydigan latifa janri ham kiritilgan. 34-betda keltirilgan ushbu latifa "Bir ahmoq kishi bir kuni yer olub..." deb boshlanadi. Biroq uning davomi yo'q. Negaki varaqlar yo'qolgan. Ushbu bayozda Furqat nasr qismida, asosan, hajviy, satirik asarlarni qo'yishni maqsad qilgan. Shoir shu hikoyalar orqali jamiyatdagi

salbiy illatlarni ko'rsatib, xalqqa yetkazishni istagan.

Qo'qon xonligida Amir Umarxon boshchiligida shakllangan adabiy maktabda shoirlar temuriylar davrida gullab-yashnagan adabiy hayot, madaniyatni qayta tiklashga, kerak bo'lsa undan-da o'zib ketishga harakat qilganlar. Bu harakatlar samarasini xonlikda muammo san'atining qayta jonlanganida ko'rish mumkin. Muammo san'ati murakkab san'at turlaridan bo'lib, tuzuvchidan katta mahorat va nozik did talab qiladi. Ushbu san'atni yuksak darajada tushunib, tahlil qila olgan va go'zal muammolar yaratgan Alisher Navoiy o'z davrida "Mufradot" asarini yozib, muammo san'atini yaratish usullari va ularning qonun-qoidalari xususida misollar bilan batafsil to'xtalgan. Asriy an'analarga sodiq bo'lgan Qo'qon xonligi adabiy muhitida ham muammo tuzishga jiddiy e'tibor berilgan, ko'plab namunalar yaratilgan va ular bayozlarda ko'p uchraydi. Tuzilgan muammolarning deyarli barchasi fors-tojik tilida bo'lib, ular, asosan, insonlarning ismiga atab tuzilgan. Ba'zi bayozlarda muammolar to'g'ridan-to'g'ri berilgan bo'lsa, ayrimlarida ular turlarga ajratilib, har bir turiga bittadan misol bilan tushuntiriladi. Masalan: 2599 raqamli qo'lyozma bayozning 33-b sahifasida (Bayoz 2599) muammo san'atining nazariy masalalari misollar bilan ilmiy tushuntirilgan. Matnda ushbu san'at haqida she'riy tavsif hamda unga oid misol keltiriladi. Dastlab tuzuvchi *a'moli tahsil* istilohiga quyidagicha ta'rif beradi.

مثال اعمال تحصیلی
چو شد اعمال تحصیلی مفصل
بتحصیلی کنم آن را مکمل
نباشد قسم تحصیلی بجز نه،
شمارم گر کنی سویم توجه

Tarjimasi:

A'moli tahsil misoli

Tahsil amallari mufassal bo'ldi,

Tahsil bilan uni mukammal qilgum.

Tahsil qismi to'qqiztadan boshqa bo'lmas,

Agar menga tavajjuh qilsang [ularni senga] sanab beraman.

E'tibor berilsa, a'moli tahsilning to'qqiz turi borligi haqida ma'lumot berilgan va uning bo'limlari sanab o'tilgan. Alisher Navoiyning "Mufradot" asarida esa uning sakkizta turi borligi qayd etilgan. "A'moli tahsili hasht ast: tansis, taxis, tasmiya, talmeh, tarodif va ishtirok, kinoya va tashif, istiora va tashbeh, hisob" (Навоий 2013, 719). Shundan so'ng shu bo'linga tegishli tansis va taxis haqida she'riy tavsif berilgan.

تنصيص و تخصيص

يکى تنصيص باشد کان فتاد است،
صريحاً ذکر لفظى کان مراد است.

Tarjimasi:

Tansis va taxis

Biri tansisdur, u oshkor (sharh) qilish demakdir,

Oshkor tarzda murodni lutf ila zikr qilmakdur.

Demak, tansis muallif ta'biricha, biror narsani yoki voqeani dalil bilan keltirish. Taxis esa oshkor qilinayotgan fikrni lutf ila oshkora qilish demakdir. Sh.Sirojiddinov ushbu terminlarga: "Tansis va taxis (oydinlashtirish va alohidalash). Biror maqsad qilingan so'z ochiq aytilib, biror vosita orqali oydinlashtiriladi. She'rdan yashirin nom ishora bilan oshkor etiladi" [Сирожиiddinov 2017, 107], – deya ta'rif beradi. Boshqa manbada esa "bu "oshkor qilish" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni bir narsani boshqa bir narsaga maxsuslash, moslash kerak bo'ladi" (Хамидова, Сулаймонова 2009, 101), – deb keltirilgan.

Muammoning ushbu ta'rifidan keyin misol sifatida Zayniddin ismiga muammo tuziladi.

باسم زين الدين

دل زاهد ز حال دين حزين است،
چه حشمت بر سر تاراج دين است.

Tarjimasi:

Zayniddin ismi bilan

Zohidning ko'ngli dinning holidan hazindir,

Qanday hashmat bila din toroj bo'lmoqda.

Xullas, muammo san'ati XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida shu qadar rivojlandiki, ko'pchilik bayozlarda muammo san'ati namunalarini uchratish mumkin va bu borada temuriylar davri adabiy hayotiga etib oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyot muxlislari uchun tuzilgan bayozlar

Bu turdagi bayozlarning paydo bo'lishida ikki omil sabab bo'ladi: ayrim bayozlar kimgadir sovg'a qilish uchun yozilsa, ba'zilar esa buyurtma asosida kotiblar, ba'zan esa shoirlar tomonidan tuzilgan. Shoirlar tomonidan tuzilgan bayozlar ham adabiy manba sifatida, ham shoir shaxsiyati va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni taqdim etishiga ko'ra qimmatli manba hisoblanadi. O'zbek mumtoz adabiyotida shoirlar tomonidan tuzilgan bayozlar

ko'p uchraydi. Masalan: 9309 raqamli qo'lyozma bayoz [Bayoz 9309] ana shunday bayozlar sirasiga kiradi. U 1893-yili Muqimiy tomonidan tuzilgan bo'lib, Bedil, Jomiy, Saydo, Navoiy, Hofiz, Hijlat, Fuzuliy, Imlo, Shaydo, Sa'diy, Obidjon, Dardiy, Rafi', Saqo, Mashrab, Mahjur, Amiriy, Ado, Vazir, G'oziy, Uzlat, Muzmar, Ma'yus, Furqat, Fazliy, Huvaydo, Xilvat, Qoriy, Muqimiy va Muhayyirning g'azal, tarji'band, musaddas, muxammas, murabba', ruboiy, qasida, masnaviy, hikoyat kabi janrlaridan tashkil topgan. Ushbu bayozning qimmatini shundaki, 178-betda kiril alifbosida quyidagi qayd beriladi: *"Muqimiyning kitobi to'g'risida AKT. Biz tubanda qo'l qo'yguvchilar. 1-shoir mulla Asg'arali "Charxiy". 2. Qo'qon o'lkani o'rganish muzeyining tarix bo'limi mudiri Qayumov Po'latjon. 3-shoir Muqimiyning jiyani Do'stmuhammadov Ro'zimuhammadjon Muqimiy komnatasida ilmiy xodim bizlar. Kitob to'g'risida eshitganlarimizga binoan va Muqimiyning Obidjon A'lam degan bir do'stiga pul barobarida yozib bergan kitob ekani ma'lum edi. Buni Muqimiyning jiyaniga yozgan xatiga solishtirib ko'rish bilan xatni Muqimiyning ekani yana ta'kidlandi. Kitob to'g'risida fikrimiz shul. (imzo chekishgan). 1050-yil. Qo'qon sh., 20-may".* Ushbu ta'kidlardan ayonki, qo'lyozma Muqimiy dastxati bilan do'sti uchun haq evaziga yozilgan va u avtograf bayoz sifatida qimmatlidir.

Muqimiyning ham shoir, ham mohir xattot bo'lganligi to'g'risida A. Murodov shunday yozadi: "Muqimiy xattot ham edi. Go'zal nasta'liq xatida jaliy qalam bilan qit'a va ruboiylar ko'chirgan" [Murodov 1971, 126]. Ushbu bayozga Muqimiy bayoz tuzish tartibiga asosan yondashgan. Bayoz o'ziga xos ichki tuzilishga ega va bir necha qismdan iborat. Birinchi qism ustoz shoirlarning (Bedil, Jomiy, Saydo, Navoiy, Fuzuliy) ijodi bilan boshlanadi. Keyin ularning she'rlari aralash holda qayta-qayta beriladi.

Ikkinchi qismida esa o'zi bilan zamondosh yoki yaqin orada yashab o'tgan Imlo, Shaydo, Sa'diy, Obidjon, Dardiy, Rafi', Saqo, Mashrab, Mahjur, Amiriy, Ado, Vazir, G'oziy, Uzlat kabi shoirlarning ijodini berish bilan birga Amiriy va unga yaqin bo'lgan Ado, Vazir, G'oziy kabi saroy shoirlarning ijodini berishda ketma-ketlikka ahamiyat bergan. Bayozda adabiy janrlarning ruboiy, musaddas, murabba', masnaviy kabi janrlaridan namunalar ham berilgan.

Bayozning uchinchi qismida "Hikoyati to'yi Iqon bachcha" haqidagi hikoyat ham berilgan. Demak, shoir bayoz tuzishda ana shu ichki bo'linishni mohirlik bilan amalga oshirgan. Aslida, bayozlarni tuzishda ma'lum bir qat'iy tartib yo'q. Unda shoirlarning ijodi aralash holda bir necha marta qayta-qayta berilishi mumkin. Biroq asrli

an'analarni saqlagan holda bayoz tuzishda yangicha yondashuvlarga tayanish Muqimiyning mohir kotib va iste'dodli shoir ekanligini ko'rsatadi.

Xonandalar uchun tuzilgan bayozlar

Ushbu turdagi bayozlarni tuzish, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida kuchaydi. Bayozlarni tuzishda kotib uning kim uchun mo'ljallanayotganiga alohida ahamiyat beradi va manbalarni ham shunga moslab tanlaydi. Qo'qon xonligida musiqa ilmiga oid bayozlardan bir nechtasini uchratish mumkin. E. Aminjonov Shashmaqom tuzilishini o'rganar ekan: XIX asr – XX asrning boshida yaratilgan manbalarni o'rganish asnosida “Shashmaqom”ning tuzilishi va o'rganishda “Bayoz”lar katta o'rin tutishini [Аминжонов 2008, 18] aniqlagan. Haqiqatda ham bayozlar nafaqat adabiyotda, balki musiqa ilmini tadqiq qilishda ham muhim ma'lumot bera oladigan manba hisoblanadi. Ular shunchaki she'riy to'plam vazifasini o'tamay, balki xonandalar uchun to'ylarda maxsus olib yuradigan she'r va kuylar to'plami vazifasini bajarganligi kuzatishlar natijasida ma'lum bo'ldi. Ushbu bayozlar xonandalar uchun metodik qo'llanma vazifasini bajarib, bayozdagi kuy nomlari va unga kiritilgan she'r va g'azallarni qanday xirgoyi qilishni bilib olganlar. Masalan, 1894-yili ko'chirilgan 769 raqamli qo'lyozmada [Bayoz 769] Jomiy, Navoiy, Sa'diy, Soib, Mohir, Hoziq, Amir, Sodiq, Vahdat, Ibn Yamin, Mashrab, Nosir Ali, Behud va hokozolarning ijodi bilan birga ayrim ijod namunalarning tepasida kuy nomi berib qo'yilgan. Jumladan, 106-b sahifada *maqomi rost panjgoh, taronayi rost panjgoh in boshad*, 107-sahifada *nasri rost panjgoh ushshoq miboshad, tezgoh, taronayi segoh, tammam al-segoh, nasri segoh, navro'z xoro, taronayi ushshoq* kabi maqomlarga mos she'rlar berilib, musiqa san'atining rivojlanishiga ko'mak bo'lgan. 108-sahifada taronayi ushshoq nomi ostida ushbu she'r beriladi. G'azal muallifining nomi bo'yalib ketganligi sababli o'qib bo'lmadi. Biroq boshqa manbalar orqali uning Fazliy g'azali ekanligi aniqlandi.

ترانه عشاق

عارفينك ايلي زلفينك يارى
 باغ ارا نمايان قيل يارى
 لاله برلا سنبلنى يارى
 داغ ايتيب پريشان قيل
 لاله كون قباحى بين يارى
 تكمه سين آچيلغانده

Bu turdagi taronalarda xonandalarga g'azallarni ijro etish

bo'yicha qulay bo'lib, ular asosda she'rlar qo'shiqqa aylangan. She'rning qaysi misrasi takror aytiladi yoki misradagi qaysi so'z qayta-qayta takrorlanadi, bularning barchasi taronalarda aks etgan.

Namangan bayozlari

Namanganda tuzilgan bayozlarni kutubxonada kam uchrasada, mavjud bayozlar asosida xulosa chiqarish mumkin. Ushbu bayozlarning tuzilishi va mavzusiga ko'ra ayrim jihatlarini hisobga olmasak, ular xonlikda tuzilgan bayozlardan deyarli farq qilmaydi. Jumladan, XX asr boshida Sulaymonxo'ja Nodim tomonidan tuzilgan 4179 raqamli qo'lyozma bayoz [Bayoz 4179] fikrimizga misoldir. Matn zamonaviy kitob talablari asosida ko'chirilganligi, ya'ni mundarija bilan boshlanganligiga ko'ra boshqa bayozlardan farqlanadi. Odatda, bayozlarda mundarija tuzish biror xonlikda an'anaga aylanmagan. Shu jihatdan ushbu bayoz yangi an'analarni o'zida namoyon qilgani bilan qimmatlidir. Aytish kerakki, mundarija musannif tomonidan yozilmagan. Chunki asosiy matn qora siyohda, uzun chizikli varaqda yozilgan, mundarija esa siyoh rang bilan katak varaqqa ko'chirilgan. Biroq qog'ozni poleografik o'rganish orqali har ikki qog'oz ham bir davrda iste'molda bo'lganligini fahmlash mumkin. Shundan kelib chiqib, Namangan bayozlari tabiati va o'ziga xosligini ushbu bayoz misolida ochib berish mumkin, degan xulosa paydo bo'ladi. Garchi mundarija kotib tomonidan berilmagan bo'lsa-da, mundarija va matn bir hudud va davrning mahsuli sifatida e'tiborlidir.

Bayozning yana bir xususiyati – matn sahifalarining raqamlar bilan belgilanganligi. Kitob sahifasining tepadan o'ng tomon burchagida sahifa raqami qo'yilgan, poygilar ham berilgan. Sahifalarni raqamlash hodisasi Qo'qon xonligi kitobatchiligida deyarli uchramaydi. Shu bois ushbu hududni kitobatchilikni rivojlantirish bo'yicha xonlikdagi yetakchi hudud deyish mumkin. Ushbu holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Namanganda ham ilm-fan, shoirlar va kotiblar faoliyati ancha rivojlangan. Shoir Nodimning nafaqat xonlik adabiyoti, balki yangiliklardan boxabar shaxs bo'lganini ham ko'rsatadi.

Shoirning bayoz tuzishdan maqsadi esa shunchaki she'rlarni to'plash emas, balki tarbiyaviy xarakterdagi ma'lumotlarni kirgizib, insonlarning bilimini, fikrlash doirasini kengaytirish ham bo'lgan. Aslida ham bu davrda bunday turdagi kitoblarga xalqning ehtiyoji bor edi. Xalqning bilimini oshirish orqali millat taqdirini o'zgartirish har bir ma'rifatparvarning, shu jumladan, Nodimning

ham katta orzusi edi.

Farg'ona bayozchiligi

Ushbu hudud bayozlari tuzilishi va mavzu ko'lamiga ko'ra Qo'qon xonligi hududidagi boshqa bayozlardan anchagina farqlanadi. Abdurauf Fitrat bu adabiy muhit haqida gapirar ekan: "Farg'onada o'sg'an adabiy hayot Xorazmniki kabi fayzli va keng bo'lmadi. Xorazmda qurilg'an muhim asarlarni tarjima qilish, ahamiyatli tarixlar yozish harakati Farg'ona davrida yo'q kabi. Shunday bo'lsa ham, Farg'ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta'sirlari bo'lg'anini inkor etib bo'lmaydi" [Фитрат 2000, 59], – deya Qo'qon xonligi adabiy muhiti haqida muhim xulosalar beradi. Mumtoz shoirlar ijodiga qiziqish balandligi sababli Bedil, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlarning ta'siri ancha baland bo'lgan. Garchand bir xonlik ostida adabiy mahfillar tashkil etilib, shoirlar o'zaro fikr almashib, she'rlar bitgan bo'lishsa-da, Farg'ona bayozlari tarkibida ko'pincha diniy-falsafiy, vatanparvarlik, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, sevgi-muhabbat mavzusidagi she'rlar, folklor namunalari, zodagonlarning yozishmalari, xatlar ko'p uchraydi. Ushbu xilma-xillik bayozlarning tarkibiy tuzilishini ancha o'zgartirib yuborgan va kashkullarga yaqinlashtirib qo'ygan. Muhammadsodiq Qoshg'ariy tomonidan 1893 – 1896-yillari tuzilgan 3278 raqamli qo'lyozma [Bayoz 3278] fikrimizga misol bo'la oladi. Bayoz tuzilishiga ko'ra bir nechta qismlardan tashkil topib, an'anaviy hamd, na't, bag'ishlov bilan boshlanadi. Basmaladan keyin avval arab, keyin forsiy, undan keyin turkiy tildagi matn bitilgan. Shundan so'ng bir nechta murojaatnomalar va shunga o'xshash matnlar berilgan. Shulardan biri Qoshg'ar hokimining Yorkent hokimiga yo'llagan arznomasidir. Unga ko'ra, Qoshg'ar hokimi Mirzo Usmonbek Yorkent hokimi Mirzo Ahmadbekning farzandi ustidan shikoyat yozgan. Shikoyat mazmunida uning farzandi Muhammad Sodiq Qoshg'arni nodonlikda ayblagani, insonlarga aqida masalasida noto'g'ri fikr berayotgani haqida aytib, uning fikrlari xato ekanligini "Aqoidi Jaloliya", "Aqoidi sun'iy", "Kitobi hidoya va sharhi voqea" kabi asarlardan misollar ja'm qilib, turkiy tiliga tarjima qilib "Zubdat al-masoil va val aqoidi tasmiya" risolasini tuzganini aytadi. Bu kitobning mundarijasi va xotimasi haqida ham gapiradi. Matn mazmunidan Qoshg'ar hokimi Mirzo Usmonbek Yorkent hokimi bo'lgan farzandiga pand-nasihat berishini uqtirib, bu ishidan ranjiganini bildirgan.

Bayoz tarkibining asosini tashkil etgan she'riyat qismida

Huvaydo, Mashrab, Fuzuliy, Solih, Shams Tabriziy, Hoziq, Zavqiy, Muqimiy, Majnun, A'zim Xoja Eshon kabi bir nechta shoirlarning falsafiy ruhda, dunyoning o'tkinchiligi, ilmning fazilati, sevgi-muhabbat haqidagi g'azallari berilgan. Masalan: Shams Tabriziyning 56-b betda berilgan quyidagi "Bilmaslar" radifli g'azalida jamiyat fojiasiga ilmsizlik asosiy sabab qilib ko'rsatiladi:

توكالور عمر هر ساعت اولر غفلتده بيلمسلار
اولوم تيكيلىب يقين كيلكاي بارى عشرتده بيلمسلار
اولوم بارين بيلور برجه وفاسى يوق بو دنيانى
يورارلار مست مستغريق مكر كيم هر كز اولمسلار
كلام حق بيان قيلسام حديث مصتقى برلان
قولاق سالمای بويون تولغار حقيقت يولغه كرمسلار
ربا، و بوزه بازاردین قيلورلار سود سوداسين
فضل كوب بو مسجيدده دريغا مونده كيلمسلار
كيلورلار هم زوروتدين قویارلار رسم اوچون پوستين
سوال ايتسنگ مثاليدين كى مينكدين بيرنى بيلمسلار
سيو، نيب بو ياز بولدى بيز قوتولدوق قشنى قهریدين
كى اوتكان عمرين بيلمس خلاق فكري قيلمسلار
كورارلار كوزين مونده بيلورلار منزلى انده
يورارلار شاد خرّم خوش عجب كيم عبرت الماسلار
جهت قيل علم اوركانكيل عمل قيل شمس اولتورمه
علمسيز علمنى هر كيزمستلم راست توتماسلار

Sakkiz baytdan iborat ushbu g'azalda shoir hayot tajribasida ko'rgan barcha illatlarning asosi ilmsizlik ekanligini anglab, har bir insonni ilm olishga, umrini besamar o'tkazmaslikka chaqiradi. Insonlarning aqidasi susayib ketayotganligi, arzimas dunyo matohlariga berilib, ilm olishni, ibodat qilishni unutilmayotganidan afsuslanadi. Bunday turdagi g'azallar bayozlarning estetik zavq oladigan manba emas, balki ma'rifatga chorlovchi vosita ham bo'lganini ko'rsatadi.

Bayozning boshqa turdagi bayozlardan ajratib turadigan jihati folklor materiallariga ham o'rin berganligidir. Xususan, kotib "Sihat tilasang ko'p yema, izzat tilasang ko'p dema", "Yaxshig'a yondashgan yetgay muroda, yomong'a yondashgan qolg'ay orada" kabi bir nechta xalq maqollari ham keltiradiki, kotib matnning hamma uchun ibratli qo'llanma bo'lishini istaganini ko'rsatadi.

Qo'qon xonligi bayozlari tarkibida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jangnoma ruhida qissalar ko'p kiritila boshladi. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi xonlik tarixiga qonli davrlarning ibtidosi sifatida muhrlangan. Qizil imperiyaning o'lkaga bostirib kelishi va mislsiz darajada qonli qirg'inlar uyushtirishi tarixiy

manbalarda batafsil yoritilgan. Ana shunday mustamlaka zulmiga qarshi kurashish va xalqni ozodlik harakatiga safarbar qilish uchun shoirlar, musanniflar jangnoma ruhidagi qissalarni bayozlarga kiritganlar. 1137. V raqamli qo'lyozmada [Bayoz 1137. V] Imom Hasan va Imom Husayn raziallohu anhu, Ibrohim Adham haqidagi qissalar beriladi va ular "Roviyoni axbor va noqiloni osor andog'....." deya nasriy saj' bilan boshlanadi. Mazkur qissalarning berilishi ham bejiz emas, aslida. Islom tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Hasan, Imom Husayn, Abo Muslim, Ibrohim Adham kabi qahramonlar misolida xalqni zamonaviy bosqinlarga qarshi ma'nan ruhlantiradi. Shu yo'l orqali xalqni tashqi dushmanlarga qarshi mardonavor kurashishga chaqirgan. Tabiiyki, bu kitobxonning ruhiyatiga ta'sir qilishi aniq. Biroq masalaning ikkinchi tag ma'nosi ham bor. U ham bo'lsa musannifning maslagi va yo'lidir. Asrlar davomida olib borilgan diplomatik aloqalar, jang-u jadallar va boshqa sabablarga ko'ra Movarounnahrda joylashgan turli dinlar va mazhablarning o'z faoliyatini yoyish maqsadida o'ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilingan. Bunday ommalashtirishning eng samarali yo'llaridan biri, albatta, buyuk shaxslar faoliyatida o'z g'oyalarini badiiy tasvirlash orqali erishilgan. Ayniqsa, xonliklar hududida sunniy va shia mazhabi vakillarining istiqomat qilishi bayozlarda diniy matnlarning kiritilishi va ularning g'oyasi bilan bog'liq o'rinlar misol bo'ladi.

Ushbu tahlillardan ko'rinadiki, bayozlar davrning mavjud vaziyati, kitobxonlar adabiy-estetik qarashlarining o'zgarishi, g'oyalar to'qnashuvi va boshqa omillar ta'sirida tarkibiy tuzilishi va mazmun-mohiyatini o'zgartirib borgan. Bu davr bayozlari faqat she'riy to'plam emas, balki bir vaqtning o'zida ham lirik, ham epik turdagi janrlarni qamrab olgan; kitobxonlarga ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni birdek berishni zarurat deb biluvchi manba vazifasini ham o'tagan. Bu esa xonlikda bayozchilik ancha rivojlanib, yangi shakl va mazmun kasb eta boshlagan, degan xulosani beradi.

Toshkent bayozchiligi

Bu hudud "Turkiston general gubernatorligining markaziy shahri bo'lganligidan yevropalashish jarayoni bu yerda tezroq va sezilarliroq kechdi" [Қосимов, Юсупов, Долимов, Ризаев, Аҳмедов 2004, 28]. Shu sababli bo'lsa kerak, jamiyatda bo'layotgan islohotlarning barchasi, eng avvalo, Toshkentda yangrar edi. Bu esa, o'z navbatida, adabiy hayotga ham ta'sir qildi. "Darhaqiqat, XIX asrning ikkinchi yarmi Toshkent adabiy muhiti uchun yangi bir

bosqichga ko'tarilish va, ayni paytda, ko'hna Turkistonda yana bir adabiy maktabning shakllanish davri bo'ldi. Ijodiy faoliyat keng quloch yozdi. Turli toifa va darajadagi o'nlab ijodkorlar yetishib chiqdi. Har qanday mustaqil ijodkor, ayni paytda, tarjimon ham edi. Arab tilidan ko'proq fiqhga, islom tarixiga oid ilmiy, forsiydan esa, asosan, badiiy asarlar tarjima qilindi" [Тўлабоев 2010, 68 – 72]. Bu hududda tuzilgan bayozlar Qo'qon xonligidagi bayozlar bilan umumiylik kasb etadi. Mundarijasiga ko'ra rang-barang mavzularni qamrab olgan Toshkent bayozchiligi ba'zi xususiyatlarini hisobga olmaganda, asosiy yo'nalishi bilan Qo'qon xonligida tuzilgan bayozlar bilan bir xil. M. Hamidova bayozlarni o'rganish asnosida Toshkent bayozchiligi xususida to'xtalar ekan: "ular mundarijasiga xos bo'lgan asosiy xususiyat tarkibidagi she'rlarning asosan o'zbek tilida ekanidadir" [Хамидова 1981, 54], deydi. Darhaqiqat, Qo'qon xonligida tuzilgan bayozlar orasida Toshkent bayozlarida turkiy tildagi she'rlar yetakchilik qiladi. Masalan: 318 raqamli qo'lyozma bayozning (Bayoz 318) 109-b – 111-a sahifalarida Amiriyning 8 baytli "Biri" radifli g'azaliga saroy shoirlarining radoyif ul-ash'or tipida tuzgan turkiy tildagi g'azallari fikrimizga misol bo'la oladi.

امير عمرخان

قانل اولمس صحبتينكغە پارسالاردين بيري

لايق دركاه امير اهل ريبالاردين بيري

غزل مایوس

سورمادی حالیمنی یا رب آشنالاردين بيري

بر نظر هم سالمادی اول پادشالاردين بيري

غزل ادا

قامتینکدیک یوق دور اشجار گلستاندين بيري

میندیک ایرمس بلبل قمری خوانلاردين [بيري]

فضلی نمکائی

حسن ارا اول آیدیک ایرمس مهقلالاردين بيري

مندیک ایرمس مبتلای مبتلالاردين بيري

Amiriy g'azaliga yozilgan tatabbu'lar bayozlarda ko'p uchraydi hamda ko'pincha Amiriy ijodidan keyin saroy shoirlarning radoyif ul-ash'or va muxammaslari beriladi. Aytish kerakki, ushbu g'azalga xonlik shoirlarining boshqa vakillari ham tatabbu' bog'laganlar va bu bayozda ularning hammasi ham berilmagan. Bu bir tomondan, ijobiy hol bo'lib, xonlikda adabiy muhitning taraqqiy etganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, "xonga shoirlarning tatabbu'lar, qasidalar bag'ishlashi, payrovlar bog'lashi kabilar ham ijobiy hodisa sanalmaydi" [Шониёзов 2009, 15], deb yozadi M. Shoniyozov. Uning bu xulosasi asosli, chunki bu orqali M. Shoniyozov

saroy shoirlari o'rtasida maddohlik avj olishiga ishora qilgan. Mantiqan olib qaraganda, har ikki jarayon saroy muhitiga xos hodisa. Istaymizmi-yo'qmi, saroy shoirlari xonga yoqish uchun unga manzur bo'ladigan she'rlar bitishga harakat qilganlar. Xon saroyida faoliyat olib borish uchun iste'dodning o'zi yetarli bo'lmay, kerak paytda xonning nazariga tushish uchun samarali harakat qilish ham zarur. Muxtasar qilib aytganda, saroyda shoirlarning g'azallar bitishi, naziralar yozishi adabiy muhitni shakllantirishda va umuman, Qo'qon adabiy muhiti taraqqiyotida muhim sanaladi.

O'zgand bayozchiligi

Bu hududda tuzilgan bayozlar nisbatan kam uchraydi. Biroq shunga qaramay, ushbu topilgan namunalar orqali ham she'riyat, umuman, adabiyotning rivoj topganini ko'rish mumkin. Misol tariqasida o'zgandlik kotib Mahmud Fozil tomonidan 1314-yili 5-mohi ramazon oyida yozilgan 2730 raqamli qo'lyozma bayozni (Bayoz 2730) ko'zdan kechirsak. Ushbu bayoz titilib, ayrim varaqlari, xususan, bosh varaqlari yo'qolganligi bois kimning ijodi bilan boshlanganini bilib bo'lmaydi. Biroq kitobning o'rtaroqlari, ya'ni 83-a betida kotibning quyidagi qaydini ko'rish mumkin:

بو کتاب مسخر بولدی اوزکند بازاریده کی مدرسهدکی هجره ده استقامت
ایلاب محمد فاضل نینک یازکان کیتابیبدور بیز فقیر شونداغ امید قیلامیز کی بیزدین
کین کیمنی قولیکا توشسه مذکور آدملاز بیزنینک اتا و انامیزنی روح پاکلاریغه دعا
قیلب قویسهلار دیب اوزومیز سینکلی برادرلار اوقوب خوشنود بولغایلار دیب یازکانیم
در تاریخ 6131 سنه 5 نجی ماه رمضان المبارک

هر کی خواند دعا طمع دارم
ز ان کی بنده کنه کارم
شد بتوفیق خدای لاینام
این کتابت روز دوشنبه تمام
اگر کورسنگ خطیمده کوب خطانی
اوزومنی سوک ولی سوکمه اتا و هم انمنی

Demak, bayoz 1896-yili ramazon oyining 5-sanasi dushanba kuni yozilgan. Aslida, kolofon qismida yozilishi lozim bo'lgan ushbu ma'lumotning matn o'rtasida kelishi matnning shu joyida bayoz tugaganligini bildiradi. Nazarimizda, kotib kitobni tugatmoqchi bo'lgan, biroq qandaydir sabablarga ko'ra yana davom ettirilgan. Bayozda, asosan, Mashrab she'rlari jamlangan.

محبت اوتیغه بغریم کویوب بر یانه یغلارمن
وصالینکنی تیلاب ای نازنین جانانه یغلارمن

Ushbu kitob ba'zi kamchiliklardan holi emas. Jumladan,

kotib tomonidan muxammas deb berilgan janrlar misrasi bo'yicha muvofiq kelmaydi. Shuningdek, kotib ba'zan g'azal va muxammaslarning muallifini ko'rsatmay, to'g'ridan-to'g'ri lirik she'rlarni keltiradi. Shu sababli qaysi shoirlarning ijodi berilganligini bilish qiyin. Uni faqat maqta'dan aniqlab olish mumkin.

Xulosa

Qo'qon adabiy muhiti ko'plab shoirlarni yetishtirib berishi jihatidan boshqa xonliklardan ancha ustun turadi. Amir Umarxon va Nodira tashabbusi bilan taraqqiy etgan bu muhitda bayozchilik ham rivojlandi. Ushbu bayozchilik maktabi Buxoro va Xiva bayozchilik maktablaridan bir qancha jihatlariga ko'ra ajralib turadi: *Avvalo*, bayoz tarkibidagi lirik she'rlar ishqiyy, tasavvufiy, ma'rifatparvarlik, erk va ozodlik xarakteridagi g'azal, muxammas, musaddas kabi janrlardan tashkil topgan. *Ikkinchidan*, bayozlarning rivojlanishi va taraqqiy etishi natijasida bayoz tarkibiga nasriy matnlar ham kiritilib, ular mavzusiga ko'ra payg'ambarlar va sahobalar bilan bog'liq xabarlar, rivoyatlar, jangnoma qissalar, masjid va madrasalarning qurilishi bilan bog'liq qaydlar, adabiyotshunoslik nazariyasiga oid ma'lumotlar, bayoz egasining shaxsiy qaydlaridan iborat. Ushbu diniy xabar va qissalarning ba'zilari ishonchsiz va asossiz bo'lib, xonliklarda yashagan o'zga din va oqimlar vakillarining ta'siri natijasida yuzaga kelgan. *Uchinchidan*, Qo'qon bayozchiligi XIX ikkinchi yarmi – XX asr boshida xonlikda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Ular tarkibidagi g'azal va muxammaslarda tasvirlangan voqealar orqali mustamlakachilik zulmi va uning oqibatlarini haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. *To'rtinchidan*, bayozlarni o'rganish orqali o'sha davrda yashagan xalqning madaniyati, ma'naviyati, turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli kabilar haqida ham tasavvur hosil bo'ladi. Xalq boshiga tushgan kulfatlarining kelib chiqishida xonlarning e'tiborsizligi, xalqning savodsizligi, maishatga berilishi kabilar g'azal va muxammaslarda badiiy aks ettiriladi. *Beshinchidan*, Qo'qon bayozchiligini o'rganish orqali Qo'qon xonligida adabiy muhit yuqori darajada taraqqiy etib, uning bu darajaga erishishida xonliklar va mintaqalar bilan adabiy-madaniy muloqot ham katta rol o'ynagani aniqlandi. Shu sababli Qo'qon bayozlarida Xiva, Buxoro xonliklari hamda chet el shoirlari ijodini ko'p uchratish mumkin. Bu esa Qo'qon xonligining qo'shni xonliklar hamda qo'shni davlatlar bilan adabiy-madaniy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- O'zbR FA SHI Asosiy fond 9309 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2599 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2505 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2102 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 322/XVII raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 802 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Asosiy fond katalogi № 2809 qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 318 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 769 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Asosiy fond 4179 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 3278 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 995/I raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2730 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 1137.V raqamli qo'lyozma bayoz.
- Абдуллаева, Д. 2005. *Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Абдурауф, Фитрат. 2000. *XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш*. Танланган асарлар. II жилд. Тошкент: Маънавият.
- Адизова, И. 2009. *Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи*. Тошкент: Фан.
- Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami*. Beshinchi jild. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Алишер Навоий. 2011. *Муфрадот*. Тошкент: Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Аминжонов, Р. 2008. *Эволюция "Шашмакома" во второй половине XIX - начале 40-х годов XX века*. Автореф. дисс.кандист.наук. Худжанд.
- Ҳамидова, М. 1981. *Қўлёзма баёзлар – адабий манба*. Тошкент: Фан.
- Ҳамидова М., Сулаймонова Н. 2009. *Эски ўзбек ёзуви*. Тошкент: Yurist-mediya markaz.
- Исмаилова, Э. 1966. *Искусство оформления среднеазиатской книги XVIII – XIX веков*. Ташкент: Узбекистан.
- Жабборов, Н. 2004. *Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси*. Филол. фан. д-ри. дисс.... Тошкент.
- Жўрабоев, О. 2017. *Матнинг матношти сирлари*. Тошкент: Tamaddun.
- Муродов, А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Пардаев, Қ. 2020. *Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини*. Фил.фан.д-ри...дисс. Тошкент.
- Қаюмов, А. 1961. *Қўқон адабий муҳити (XVIII – XIX асрлар)*. Тошкент: Фанлар Академияси.
- Қобилова, З. 2010. *Амирий шеърятини*. Тошкент: Фан.

- Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. 2004. *Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Маънавият.
- Сирожиддинов, Ш. 2017. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: Navoiy universiteti.
- Тўлабоев, О. 2010. *Каримбек Камийнинг ҳаёт ва ижод йўли*. Филол. фан.номз...дисс. Тошкент.
- Юсупов, Ш. 2003. *Тарих ва адаб бўстони*. Тошкент: Маънавият.
- Зоҳидов, Р. 2018. *“Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.
- Зоҳидов, Л. 1986. *Алишер Навоий ижодида муаммо жанри*. Тошкент: Фан.
- Шониёзов, М. 2009. *“Мажмуаи шоирон” тазкираси матнини тайёрлаш принциплари ва матний тадқиқи*. Фил.фан. номз... дисс. Тошкент.

The Kokand Tradition of *Bayaz* Manuscript Compilation and its Distinctive Features

Zilola Shukurova¹

Abstract

When *bayaz* entered Central Asia as a literary source, the demand for it gradually increased. Unlike the other collections of this type, *bayaz* quickly gained fame because it consisted of a “bouquet” of poets’ works and began to become a popular from the XIXth century. As a result of development, *bayaz* schools were formed within each khanate while these schools retained the common features of *bayaz*, each school also began to acquire its own characteristics which are important distinguishing features between them. This situation became especially noticeable in the second half of the XIXth century. Until this period, the *bayazes*, which had been composed almost identically in the three khanates, gradually began to change in their structure, artistic decoration and content. Along with the creation of traditional *bayazes*, new types of *bayazes* were also created, which requires researchers to seriously study the schools of *bayazes*.

Key words: *bayaz, source, manuscript, lithography, bayazism,*

¹ Zilola Y. Shukurova – Doctor of Philological Sciences, dotsent, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi’i.

E-mail: zilolashukurova@7616gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8766-8833

For citation: Shukurova, Z. 2025. “The Kokand Tradition of *Bayaz* Manuscript Compilation and its Distinctive Features”. *Golden Scripts* 3: 42 – 65.

collection, poet, literary environment.

References

- O'zbR FA SHI Asosiy fond 9309 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2599 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2505 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2102 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 322/XVII raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 802 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Asosiy fond katalogi № 2809 qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 318 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 769 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Asosiy fond 4179 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 3278 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 995/I raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 2730 raqamli qo'lyozma bayoz.
- O'zbR FA SHI Hamid Sulaymon fondi 1137.V raqamli qo'lyozma bayoz.
- Abdullaeva, D. 2005. *Usmonxo'ja Zoriy hayoti va ijodi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Abdurauuf, Fitrat. 2000. *XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash*. Tanlangan asarlar. II jild. Toshkent: Ma'naviyat.
- Adizova, I. 2009. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami*. Beshinchi jild. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Alisher Navoiy. 2011. *Mufradot*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Aminjonov, R. 2008. *Evolyusiya "Shashmakoma" vo vtoroy polovine XIX – nachale 40-x godov XX veka*. Avtoref. diss.kond.ist.nauk. Xudjand.
- Hamidova, M. 1981. *Qo'lyozma bayozlar – adabiy manba*. Toshkent: Fan.
- Hamidova M., Sulaymonova N. 2009. *Eski o'zbek yozuvi*. Toshkent: Yurist-mediya markaz.
- Ismailova, E. 1966. *Iskusstvo oformleniya sredneaziatskoy knigi XVIII – XIX vekov*. Tashkent: Uzbekistan.
- Jabborov, N. 2004. *Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi*. Filol. fan. d-ri. diss.... Toshkent.
- Jo'raboiev, O. 2017. *Matnning matnoli sirlari*. Toshkent: Tamaddun.
- Murodov, A. 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Pardaev, Q. 2020. *Muqimiy she'riyatining matn tarixi, tahriri va talqini*. Fil. fan.d-ri...diss. Toshkent.
- Qayumov, A. 1961. *Qo'qon adabiy muhiti (XVIII – XIX asrlar)*. Toshkent: Fanlar Akademiyasi.
- Qobilova, Z. 2010. *Amiriy she'riyati*. Toshkent: Fan.
- Qosimov, B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Ma'naviyat.

- Sirojiddinov, Sh. 2017. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- To'laboev, O. 2010. *Karimbek Kamiyning hayot va ijod yo'li*. Filol. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Yusupov, Sh. 2003. *Tarix va adab bo'stoni*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Zohidov, R. 2018. *"Sabotul ojizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari*. Filol. fan. d-ri... diss. Toshkent.
- Zohidov, L. 1986. *Alisher Navoiy ijodida muammo janri*. Toshkent: Fan.
- Shoniyozov, M. 2009. *"Majmuai shoiron" tazkirasi matnini tayyorlash prinsiplari va matniy tadqiqi*. Fil. fan. nomz... diss. Toshkent.